

**O‘ZBEKISTON MADANIY-XO‘JALIK HUDUDLARI BRONZA DAVRI
GEOGRAFIK HOLATI XUSUSIYATLARI VA ETNOGENETIK
JARAYONLARNING RIVOJLANISH TARIXI.**

Sobirov Q.

Urganch davlat universiteti professori.

Nurmetov S.

Urganch innovatsion universiteti stajyor-o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi.

sardornur.7111@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston hududida bronza davrida etnogenetik jarayonlar ta’sirida madaniy-xo‘jalik tiplarida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Zarafshon, Toshkent, Farg‘ona, eneolit, bronza, Kopetdog‘, Murg‘ob, Jonbos-7, Yakkaperson-2,14, Angka-5, Ko‘kcha-3, Sopollitepa, Jarqo‘ton.

Аннотация: В статье анализируются изменения культурно-экономических типов под влиянием этногенетических процессов в эпоху бронзы в Узбекистане.

Ключевые слова: Хорезм, Зарафшан, Ташкент, Фергана, энеолит, бронза, Капетдог, Мургаб, Джанбас-7, Яккапарсон-2,14, Ангка-5, Кукча-3, Сапаллитепа, Жаркутан.

Annotation: The article analyzes the changes in cultural and economic types under the influence of ethnogenetic processes during the Bronze Age in Uzbekistan.

Keywords: Khorezm, Zarafshan, Tashkent, Fergana, Eneolithic, bronze, Kopetdog, Murgob, Jonbos-7, Yakkaperson-2,14, Angka-5, Kokcha-3, Sopollitepa, Jarkoton.

Kirish. O‘zbekiston ibtidoiy jamoa tuzumi tarixida bronza davri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarida yuz bergan o‘zgarishlari bilan o‘z

tarixiy o'rniga ega. O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlaridagi eneolit davri manzilgohlarida istiqomat qilgan qabilalarning amaliy mashg'ulotlarining ahamiyati bronza davrida ham saqlanib qolgan. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv II mingyillik boshlari va o'rtalarida O'zbekiston hududlarida yashagan aholining qo'shni yangi hududlarni o'zlashtirish maqsadida olib borgan migratsion tadbiri katta ahamiyatga ega bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv II mingyillik o'rtalariga kelib Volga bo'yi va Janubiy Ural janubi-g'arbiy hududlarida joylashgan Yog'ochband qabilalari hamda O'rta Osiyoning shimoli-sharqida Andronova ko'chmanchi chorvadorlari Xorazm, Zarafshon, Toshkent va Farg'ona hududlariga kelib joylashib etnik jarayonlarni jadal rivojlantirganlar. Mil.avv II mingyillik o'rtalari birinchi choragi boshlarida Janubiy Turkmanistonning Murg'ob daryosi havzasida turar-joylar qurilishida binokorlik bilimini namoyon qilgan ziroatkor aholining bir guruhi Surxon vohasi shimoli-g'arbidagi dehqonchilik madaniyati olib borishga qulay bo'lgan sernam va serunum tekislikka kelib joylashganlar. Maqolada O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlarida mahalliy aholi va ko'chib kelgan qabilalarning omuxtalashishi natijasida yuz bergan o'zgarishlarni yoritish nazarga olingan.

Maqolani yoritish uslublari:

-Ilmiy xolislik, tarixiy tahlil, xronologik izchillik, qiyoslash, umumlashtirish, asoslash, etnografiya, antropologiya fanlari yutuqlaridan foydalanish asosida maqolani mazmunli izohlash.

Tahlil: O'zbekistonning bronza davri madaniy-xo'jalik hududlarida aholining joylashishi, etnik jarayonlar tarixi izohlanadi.

Natijalar: O'zbekistonning madaniy-xo'jalik hududlarida aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ash'yolarni ilmiy tahlilga asoslangan nashrlarda qayd qilingan ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilishda xosil bo'lgan natijalar qayd qilingan.

Xulosa: Maqolada O'zbekiston bronza davrida kechgan etnik munosabatlar, aholining joylashish xususiyatlari, madaniy-xo'jalik tiplarda yuz bergan o'zgarishlarning mohiyati yakuniy xulosa qilinadi.

Takliflar: Bronza davri jamiyatida yuz bergan o'zgarishlar, aholining joylashishi, etnik munosabatlarning kechish masalalari, jamiyatning notekis rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari, etnodemografik jarayonlar, chorvador va o'troq aholi o'rtasidagi munosabatlar tarixini yoritish tadqiqotchilar asarlarida o'z ma'nosini topishi dolzarb muammolardan biri.

Asosiy qism: XX asr adabiyotlari va XXI asr ilmiy nashrlarida O'zbekistonning bronza davri jamiyatini qamrab olgan tarixiy jarayonlarga oid axborotlar geografiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar asarlarida bronza davri jamiyati rivojlanishida eneolit davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning notekis rivojlanishi ahamiyati saqlanib qolishi hamda eneolit davrida aholining migratsiyasi, uning yanada faollashishi bronza davrida kechganligi to'g'risida ma'lumotlar qayd qilingan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi Sharq dunyosi madaniy-xo'jalik hududlarida kechgan migratsiyalar mazmuni quyidagicha izohlangan, ya'ni:

- Madaniy integratsiya olib borilishi natijasida hajmi jihatdan qulay tabiiy-iqtisodiy hududlarni egallash;

- Egallangan yangi hududlarda mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanish va uni keng hududlar doirasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida yangi texnologik uslublarni ixtiro qilish [1:166-167];

Qadimgi Sharq dunyosida eneolit davrida kechgan migratsiyalar qaysi madaniy-xo'jalik hududlarida yuz berganligini tadqiqotchilar e'tibordan chetda qoldirganlar. O'rta Osiyo mintaqasida esa eneolit davrida madaniy-xo'jalik hududlarda aholi tomonidan migratsion siyosat g'arbiy, markaziy va janubi-sharqiy hududlarda olib borilmagan [2:35-38]. O'rta Osiyoning janubiy Turkmanistondagi Kopetdog' oldi etaklari va Shimoliy Zarafshon hududi aholining asosiy o'zlashtirish maydonlari bo'lgan.

Bronza davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishida eneolit davri aholisi an'analari davom etgan Bronza davri O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlaridagi tarixiy jarayonlarni ikki tipga ajratish mumkin:

1. Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon va Toshkent hududlari.
2. Farg'ona vodiysi va Surxon vohasi (Chust va Sopollitepa).

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududida bronza davri jamiyatida turar-joylar konstruktiv tuzilishi, aholining joylashishi, etnik migratsiyalar natijasida vujudga kelgan.

Quyi Amudaryo hududida bronza davri jamiyatida yuz bergan o'zgarishlar Amudaryo transgressiyasiga bog'liq bo'lgan. Shuningdek Qizilqum va Qoraqum geografik manzarasini hosil qilgan to'lqinsimon sochma qum uyumlari oralig'ida mavjud bo'lgan suv havzalari sohili etagiga ulangan tekisliklar va tepaliklarga qurilgan mavsumiy manzilgohlardan iborat bo'lgan. Aholining amaliy mashg'uloti uy chorvachiligi, kulolchilik ashyolari (qo'lda ishlangan) va ziroatchilikning "qayr" uslubi hisoblangan. Jamiyatning iqtisodiy asosini hosil qilgan madaniyat sohiblari Suvyorgan va Tozabog'yobliklar hisoblangan. Bronza davrida esa ikki madaniyat omuxtalashishi natijasida Amirobod madaniyati shakllangan (Jonbos-7, Yakkaperson-1,14) [3:47-65].

Kezi kelganda ta'kidlash lozim bo'ladiki, M.A.Itina ma'lumotlarida Jonbos-4 urug'-jamoalari mahalliy bo'lib, ularning xo'jalik an'analarini olib borgan Suvyorganliklar taqdiriga oid ma'lumotlar ko'zga tashlanmaydi. Ammo Suvyorganliklar bilan Quyi Amudaryo hududiga geologik jihatdan ulashib ketgan Volga-Don daryolari hududlarini Yog'ochband hamda Qozog'istonning shimoli-sharqiy tomonidagi Andronova qishloqlaridan ko'chib kelgan qabilalar mahalliy aholi bilan aralashib ketishi natijasida Tozabog'yob madaniyati shakllangan.

Aslida mahalliy tub aholi bo'lgan Suvyorganliklar Yonboshqal'a balandligi atroflari, Sulton Uvays tog'i shimoliy va shimoli-sharqiy taraflari, Tuyamo'yin hamda Uzboy hududlarida etnik munosabatlarni olib borib, Tozabog'yob va Amirobodliklar

bilan yonma-yon tarzda etnik aloqalarni olib borganlar (Qamishli 1,2, Bozor, Uchtag'on, Qaundi va h.k).

Mil.avv II mingyilliklar boshlaridan Volgabo'yi atroflari va Ural tog'i janubi-sharqiy hududlaridan Andronovaliklar O'zbekistonning Orolbo'yi havzasi janubiy Oqchadaryo hududi, Toshkent, Zarafshon va Farg'ona vodiylarini o'zlashtirib etnik munosabatlarni davom ettirganlar. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha Yog'ochband va Andronova qabilalari Janubiy Oqchadaryo hududiga kelib joylashib, mahalliy aholi bilan omuxtalashib (Ko'kcha 15,15a, Ko'kcha-10,16, Jonbos-30, 33, 34, Bayram-Qazg'on-2, Qavat-3, Ko'kcha-3) Androvaliklar (Ko'kcha-19, Jonbos-34) va Tozabog'yobliklar bilan yonma-yon yashab etnik munosabatlarni olib borganlar [4:52-150]. O'. Mavlonovning xulosasiga ko'ra qabilalarning tarix taqozosiga ko'ra yangi hududlar sari migratsiyasi natijasida bronza davri boshlarida vujudga kelgan aloqa yo'llari ibtidoiy manzilgohlarni oziq-ovqat mahsulotlari va tog'-kon sanoati bilan bog'lash vazifalarini bajarishga xizmat qilgan [5:8-31]. Taqiqotchilar hamkorligidagi nashrda Xorazm madaniy-xo'jalik xududlarida geografik muhit, tabiiy sharoit davrida tosh davri so'ngi bosqichida ibtidoiy ovchilarning turmush tarzi, xo'jalik sohalaring rivojlanish xususiyatlari yoritilgan [6:39-57].

X.Matyoqubov Janubiy Orol bo'yi hududlarida neolit, eneolit va bronza davri boshlarida xo'jalik, kulolchilik va turor joylar qurulishida amaliy mashg'ulotlarda yangi bilimlar va ixtirolar qilinmaganligini to'g'ri qayd qilgan edi [7:101-121]. Taqiqotchining xulosasiga ko'ra Zarafshon, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida neolit davri urug' jamoalarining kundalik foaliyatlarida o'zlashtiruvchi xo'jalik rivojlanib, jamiyatning iqtisodiy tizimini belgilab bergan. Taqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar, O'zbekiston madaniy-xo'jalik tiplarida aholining mezolit, neolit, eneolit va ilk bronza davrida moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishiga shart- sharoitlar va iqtisodiy omillar imkon bergan degan xulosaga kelish mumkin. Mil. avv II ming yillik o'rtalaridan boshlab O'zbekiston hududi aholising ko'chib kelgan aholi bilan omuxtalashishi natijasida xo'jalikda texnologik

hunarmandchilik va binokorlik sohasida kashfiyotlar qilishi bronza davri rivojlanishiga omil bo'lgan.

Mil.avv III mingyillik oxiri-II mingyilliklar o'rtalaridan O'zbekiston tarixiy-madaniy viloyatlari aholining kelib joylashish makoniga aylanadi. Albatta, ko'chib kelgan aholi mahalliy qabilalar bilan qorishib ketishi yuz bergan. Bu jarayon natijasida xo'jalik mazmuni, turar-joylar qurilishi xususiyatlarini yangicha qiyofada namoyon qiladi.

Zarafshon vodiysi g'arbiy, o'rta va janubiy hududlaridagi manzilgohlarda yashagan qabilalar mazkur tarixiy davrda Quyi Amudaryo hududidagi qabilalar olib borgan xo'jaligini aynan takrorlaganlar [8:171-179].

Toshkent va Farg'ona vodiylarida bronza davri boshlarida aholining xo'jalik an'analari eneolit davrida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan va xo'jalikning asosi hisoblangan chorvachilik bo'lganligiga asos ular qoldirgan qabrlardan olingan moddiy ashyolar hisoblanadi [9:205].

Bronza davri so'nggi bosqichida O'zbekiston madaniy-xo'jalik vohalarida joylashgan aholi turmush tarzi, xo'jalik sohasida bir qator o'zgarishlarni yuz berishi bilan avvalgi tarixiy jarayonlardan farqlanish xususiyatlari kuzatiladi. Nazarimizcha, Ustyurt, Janubiy Orolbo'yi, Zarafshon, Toshkent vodiylari hududlarida geografik muhitga moslashgan aholi chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish yo'liga kirganligi munosabati bilan o'zlashtiruvchi xo'jalik yordamchi soha sifatida saqlanib qolgan.

Ta'kidlash lozimki, Ustyurt, Janubiy Orolbo'yi, Zarafshon va Toshkent hududlari aholisi olib borgan xo'jaligida tabiiy muhit o'ziga xosligi jamiyatning notekis rivojlanishida aks etgan. Chunonchi, bu notekislik holati arxeologik ashyolar (moddiy va ma'naviy darajasi, turar-joylarning rejaviy tuzilishi, qurilish texnikasining takrorlanishi, hunarmandchilik sohasidagi yutuqlar, idish tovoqlarning qo'lda tayyorlanishi, texnologik bilimlar kashf qilinganligi, binokorlik bilimida mudofaa inshootlaridan holi) asos bo'lib xizmat qilgan. Yu.A.Zadneprovskiy ma'lumotlariga

ko'ra chorvador va o'troq ziroatkor aholi o'zaro munosabatlari natijasida mil.avv II mingyillik ikkinchi yarmida Farg'onada Chust madaniyati vujudga kelgan.

B.X.Matbobayev ma'lumotlariga ko'ra, Chust manzilgohi aniq geografik hududida paxsa va xom g'ishtdan tiklangan devor o'rab olinganligi, Chustlik aholi o'troqlashib, xo'jalikda erishgan yutuqlari (oziq-ovqat zahirasi, aholi himoyalaniishi) hamda kundalik faoliyatlarida mavjud bo'lgan mudofaa bilimlarini (himoyalaniish) o'zlashtirib olganliklaridan dalolat beradi [10:9-10].

Mil.avv XVII asrga kelganda Surxon vohasi Janubiy Turkmanistonning Murg'ob daryosi havzasidan ziroatkor aholining ko'chish obyektiga aylanadi (Darhaqiqat, neolit, eneolit va bronza davri boshlarida Surxon vohasi qabilalar migratsiyasidan chekkada qolgan edi).

A.Asqarov nashrlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Surxon vohasining Sherobod hududida Sopollitepa va Jarqo'ton turar-joylari qurilishida hunarmandlar amaliy bilimlarini aks ettirganlar [11:120-147].

Shu tariqa, yuqorida keltirilgan ma'lumotlard quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkoniyatini beradi:

- O'zbekiston tarixiy-madaniy hududlari bronza davri jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning notekis holda rivojlanishi va kechgan etnik jarayonlar ikki hududga ajratiladi;

1. Ustyurt platosi, Janubiy Orolbo'yi, Zarafshon, Toshkent hududlari aholisi xo'jaligi rivojlanishi ilk bronza davrida eneolit aholisi xo'jalik an'analari asosida rivojlanishda davom etgan. Chorvachilik va ishlab chiqarish xo'jaligi jamiyat ijtimoiy tuzilishini tashkil qilgan;

2. Farg'ona va Surxondaryo hududlarida bronza davrida xo'jalik sohalarini olib borgan aholi aniq geografik o'ringa ega bo'lib, moddiy va ma'naviy madaniyatda yutuqlarga erishganlar. Turar-joylar qurilishida bir qator o'zgarishlar yuz beradi, ya'ni paxsa va xom g'ishtdan tiklangan mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Mil.avv X-VIII asrlarda bronzadan temir davriga o'tish davrida kechgan tarixiy jarayonlarni yoritish alohida mavzu asosida o'rganishni taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ламберг-Карловекия К.Х. Контуры древнейшей истории Иракского плато // Древние цивилизации Востока – Ташкент, Фан, 1986.
2. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта – М.; Наука, 1962.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта – М.; Наука, 1962.
4. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагыбской культуры// МХЭ - М.;Наука.1959. ВЫП-1.
5. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari – Toshkent;. Akademiya-2008.
6. Кдырниязов М.Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М., Сагдуллаев А.С. Кдырниязов О.Ш. История цивилизации Хорезма – Нукус. 2017.
7. Matyaqubov X. Xorazm vohasi bronza davri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent:, O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti.2017.
8. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледения в низовьях Зарафшана. - Ташкент: Наука, 1966.
9. Заднепровский Ю.А. Чустская культура в Ферганской долине //Средняя Азия в эпоху камня и бронзы - М-Л, Наука.1966.
10. Matboboyev B.X. Qadimgi Farg'ona ilk davlatchilik tarixi ildizlari// O'zbekiston tarixi. – Toshkent.2002.
11. Аскарлов А. Древнеземледельческая история эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент. Наука, 1977.